MUSTAQILLIK DAVRI O'ZBEK EPOSSHUNOSLIGIDA QAHRAMONLIK DOSTONLARINI TADQIQ ETISHNING YANGICHA METODOLOGIK TAMOYILLARI

Xakimovna Maxsudaxon G'ofurjon qizi,

FarDU tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu ilmiy tezisda mustaqillik yillarida o'zbek folklorshunosligi, xususan, eposshunoslik fani erishgan ilmiy-nazariy va metodologik yutuqlar tahlil qilingan. Sho'ro davridagi sotsiologik va mafkuraviy cheklovlardan holi bo'lgan zamonaviy o'zbek eposshunosligining yetakchi tamoyillari, jahon folklorshunoslik maktablarining ilg'or tajribalari hamda milliy folkloristik an'analarning ijodiy sintezi ko'rib chiqilgan. Hodi Zarifov va V.M. Jirmunskiy monografik tadqiqotlaridan boshlangan ilmiy an'analarning akademik To'ra Mirzayev va boshqa folklorshunos olimlar izlanishlarida yangicha konseptual yo'nalishlar vositasida rivojlantirilishi atroflicha yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: eposshunoslik, qahramonlik eposi, "Alpomish", sotsiologik metod, tarixiy-genetik metod, tarixiy-tipologik metod.

O'zbek folklorshunosligi, xususan, eposshunoslik fani uzoq va murakkab taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan bo'lib, bu jarayonda mustaqillik davri tamomila yangi ilmiy-nazariy va metodologik mezonlarning shakllanishi bilan keskin ajralib turadi. Ma'lumki, sobiq sho'ro tuzumi davrida xalq og'zaki ijodi namunalarini, xususan, qahramonlik dostonlarini tadqiq etishda asosan sotsiologik yondashuv ustuvorlik qilar, asarning tub mifologik, etnik va poetik qatlamlari mafkuraviy qoliplar doirasida sun'iy ravishda moslashtirilar edi .

Mustaqillik yillarida o'zbek folklorshunosligida yangi ilmiy metodlar olimlarimiz tomonidan keng qo'llanila boshlandi. Bu metodlar yordamida eposlarimiz tub mohiyati yangicha anglandi, eposlarning strukturasi, obrazlar tizimi, shakl va ma'nolar qatlamlari va badiiy-falsafiy mohiyati yanada chuqur tahlil etildi, ularning o'ziga xosligi va jahon eposlari kontekstidagi o'rni

yangicha metodologik asosda belgilandi. Sovet davrida o'zbek eposlarini o'rganishda asosiy (qoliplangan) uch asosiy metodologik yondashuv mavjud edi:

tarixiy-genetik metod;

tarixiy-tipologik;

sotsiologik metod.

Tarixiy-genetik metod o'sha davr folklorshunosligining asosiy metodlaridan biri edi. Bu metod orqali dostonlarning tarixiy ildizlarini, turli variantlari o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni, boshqa turkiy xalqlar eposlari (masalan, o'zbek "Alpomish"i, ozarbayjon "Ko'ro'g'li'si, qozoq "Alpomish botir"i yoki qirg'iz "Manas"i) bilan genetik aloqadorligini aniqlashga harakat qilingan. Mashhur olimlar V.M.Jirmunskiy, Hodi Zarif kabi ustozlarimizning xizmatlari bu yo'nalishda salmoqlidir. Bu metod eposni tarixiy hodisa sifatida, xalqning o'tmishi, etnogenezi bilan bog'liq holda o'rganish imkonini berar edi. Bu esa, marksizm g'oyalariga muvofiq kelardi. Keyingi keng qo'llanilgan tarixiy-tipologik metod, Sho'ro xalqlarining eposlarini (masalan, o'zbek, qirg'iz, qozoq, arman, gruzin, rus eposlari) o'rganishda juda faol ishlatilgan. Bu metod orqali turli millatlarning eposlari orasidagi umumiy rivojlanish qonuniyatlari, syujet, motivlar va qahramonlik turlari aniqlangan. Metodning asosiy vazifasi, avvalo, turli xalqlarning dostonlari orasidagi o'xshashliklarni (tipologik umumiylikni) aniqlab berar edi. Sho'ro ideologiyasi bu orqali "xalqlar do'stligi" va "umumiy tarixiy taraqqiyot" g'oyalarini mustahkamlashga ham xizmat qilardi. Sotsiologik metod esa tarixiy-qiyosiy metodni to'ldirib, uni mafkuraviy jihatdan "to'g'ri" yo'nalishga solib turar edi. Bu metodga ko'ra, har qanday folklor asari, jumladan epos ham, muayyan ijtimoiy-tarixiy davrning, ma'lum bir sinfning manfaatlari va dunyoqarashini ifodalovchi manba sifatida qaralgan. Bu metodda eposlar, sinfiy kurashning badiiy in'ikosi sifatida talqin qilingan. "Alpomish"dagi Qalmoqxon, "Go'ro'g'li" turkumidagi Eron shohlari va mahalliy zolim beklar – ekspluatator sinf vakillari, Alpomish va Go'ro'g'li esa mehnatkash xalq ommasining orzu-umidlarini ro'yobga chiqaruvchi qahramonlar, deya baholangan. Dostonlardagi xalqchillik, vatanparvarlik, adolat uchun kurash motivlari oldinga chiqarilib, ularning diniy yoki davlatchilik bilan bog'liq ma'no qatlamlariga e'tibor qaratilmagan.

Mustaqillik davri o'zbek folklorshunosligi mafkuraviy tazyiqdan holi ilm-fan endilikda eposlarimizga faqat tarixiy yoki ijtimoiy hujjat sifatida emas, balki murakkab sistemali, badiiy-

ilmiy, falsafiy tizim sifatida qarash imkoniyatini berdi. "O'zbekistonning istiqlolga erishishi qadimgi tasavvurlar bilan bog'liq folklor asarlari, jumladan, mifologik syujet va motivlarni keng ko'lamda o'rganishga katta imkoniyatlar yaratdi"[1]. Mustaqillik davrida o'z milliy qadriyatlarimizni, xalq ruhiyatining asoslarini chuqurroq anglashga ehtiyoj kuchaydi. Eposlar-millatning badiiy tafakkuri, falsafasi va axloqiy qadriyatlari tizimlashgan fundamental manbadir. Eposshunos olimlarimiz tomonidan keng qo'llanila boshlangan tarixiy-qiyosiy va etnografik metodlar, tarixiy-jo'g'rofiy, tarixiy-genetik, strukturaviy tahlil va qiyosiy-tipologik, germenevtik, psixoanalitik, lingvistik metodlar esa bevosita epos matnidagi yashirin ma'no qatlamlarini ochish imkoniyatiga egadir. Eposshunos olim Sh.Turdimov ta'kidlaganidek: "O'zbek mifologiyasini o'rganish bevosita mustaqillik sharofati bilan keng ko'lam oldi". Chunki endi u xalqning ma'naviy xazinasi, milliy o'zligini anglash vositasi va adabiy–badiiy tafakkur ildizi sifatida qaralmoqda. Ushbu faslda mustaqillik davri o'zbek eposshunosligining taraqqiyot xususiyatlarini belgilab bergan yetakchi moduslar, jahon folklorshunoslik maktablarining metodologiyasi va metodlari, tajribalarining milliy epos tadqiqidagi sintezi hamda dostonlarni o'rganishdagi yangicha metodologik yondashuvlar tahlilga tortiladi. Ma'lumki, o'zbek folklorshunosligi maktabining shakllanishi va xalq ijodiyoti namunalarini fundamental tadqiq etish jarayoni bevosita Hodi Zarifov nomi bilan bog'liq. Olimning dastlabki izlanishlari o'zbek folklorini, xususan, xalq dostonlarini ilmiy darajada o'rganishga mustahkam zamin yaratdi. H.Zarifovning yirik eposshunos olim V.M.Jirmunskiy bilan hamkorlikda yaratgan va rus tilida nashr etilgan "O'zbek xalq qahramonlik eposi" fundamental monografiyasi, shuningdek, dostonlarning epik tabiati va tarixiy asoslarini tadqiq etishga qaratilgan turkum ilmiy ishlari o'z davrida nafaqat milliy eposni o'rganishning mumtoz namunasi, balki o'zbek folklorshunosligi maktabining asosiy ilmiy-nazariy poydevori bo'lib xizmat qildi. Ushbu tadqiqotlar dostonlarni ilmiy-tarixiy va qiyosiy-tipologik jihatdan tahlil qilishning dastlabki tamoyillarini belgilab berdi. Istiqlol davriga kelib, o'zbek folklorini, xususan, o'zbek eposlarini o'rganishda mafkuraviy qoliplardan mutlaqo voz kechildi va sof ilmiy-tafakkur erkinligi qaror topdi. Bu davrda jahon folklorshunosligida muhim o'ringa ega bo'lgan tarixiy, psixoanaliz maktablarining nazariy qarashlari va yondashuvlari milliy eposshunosligimiz metodologik tamoyillari tizimiga qamrab

[1] Jo'rayev M., Eshonqulov J. Folklorshunoslikka kirish. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Barkamol fayz media, 2017.

olindi. Shuni ta'kidlash joizki, o'zbek eposshunoslari ushbu xalqaro ilmiy tajribalarni shunchaki mexanik tarzda o'zlashtirib yoki tayyor andoza sifatida qabul qilganlari yo'q. Aksincha, milliy eposimizning o'ziga xos tabiati, uning baxshichilik an'anasi bilan uzviy bog'liqligi hamda xalqimizning madaniy-ma'rifiy va etnopsixologik ildizlaridan kelib chiqqan holda, olimlarimiz jahon folklor maktablarining ilg'or tamoyillarini o'zlarining xususiy ilmiy-nazariy qarashlari bilan ijodiy sintez qildilar. Aynan H.Zarifov va V.M.Jirmunskiy tomonidan yaratilgan o'zbek folklorshunosligi maktabining mustahkam ilmiy-nazariy asosiga tayanib, keyingi yillarda T.Mirzayev, M.Jo'rayev, M.Murodov, J.Eshonqulov, Sh.Turdimov, I.Yormatov, S.Mirzayeva kabi olimlarning tadqiqotlarida o'zbek xalq dostonlariga yangicha konseptual yondashuvlar ishlab chiqildi. Natijada, olimlarimiz tomonidan epos variantlari, mifologik unsurlari, genezisi, og'zaki matnning tarixiy takomili jarayonidagi o'zgarishlari, dostonlarning ijro usullari, musiqiy tabiati, dostonchilik maktablari chuqur o'rganildi, orginal nazariy xulosalar berildi va xalq dostonlarimizga murakkab sinkretik hodisa sifatida qaraladigan zamonaviy metodologiya yuzaga keldi. Ushbu milliy va umumbashariy ilmiy-nazariy yondashuvlarning uyg'unlashuvi o'zbek eposshunosligini tadqiqotlar ko'lami va tahlil tamoyillari jihatidan taraqqiyotning yangi, keng qamrovli bosqichiga olib chiqdi. Ta'kidlash joizki, akademik To'ra Mirzayev tomonidan qahramonlik eposi, xususan, "Alpomish" dostonining qirqqa yaqin variantlarining to'planishi, ularning qiyosiy-tipologik o'rganilishi hamda asarning akademik nashri tayyorlanishi o'zbek eposshunosligi tarixida muhim ilmiy bosqich bo'ldi. Zabardast olim tomonidan "Alpomish dostonining o'zbek variantlari" (1968) monografiyasi nashr etildi. Garchi mazkur fundamental izlanishlarning dastlabki poydevori mustaqillikdan oldingi yillarga to'g'ri kelsa-da, ushbu tadqiqotlar o'zining teran ilmiy-nazariy qamrovi va obyektiv tahlil tamoyillari bilan mustaqillik davri o'zbek eposshunosligi uchun yangicha metodologik zamin vazifasini o'tadi. Ushbu asarning eposshunoslikdagi konseptual ahamiyati va unga kiritilgan yangicha yondashuvlarni quyidagicha umumlashtirish maqsadga muvofiqdir:

- o'zbek folklorshunosligida ilk bor dostonlarning "versiya" va "variant" tushunchalari o'rtasidagi kategorial tafovutni ilmiy asoslab berildi.

- "Alpomish" dostonining 40 ga yaqin variantlari qiyosiy-tipologik tahlilga tortildi hamda "Alpomish"ning shakllanish davrini X-XII asrlar etib ilmiy isbotlandi.

- Tadqiqotda har bir variantning o'ziga xosligini ochib berish bilan birga, syujet dinamikasi va dostonning badiiy-poetik tabiati, motivlarining tarixiy evolyutsiyasi teran tahlil qilindi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, "Alpomish" dostonining o'zbek variantlarini atroflicha va tahliliy o'rganilganligi folklorshunosligimizda eposshunoslikning mustahkam ilmiy poydevorini yaratib berdi. Bu borada akademik To'ra Mirzayev ilgari surgan ilmiy xulosalar nafaqat milliy, balki jahon eposshunosligi kontekstida ham yuqori qimmatga ega. "To'ra Mirzayevning "O'zbek baxshilarining epik repertuari" va "Alpomish" dostonining o'zbek variantlari risolalarida juda katta masalalar ilgari surildi… Endilikda mazkur risolalarda tilga olingan yo'nalishlarning har biri alohida mavzu qilib o'rganiladigan payt keldi. Zero, jahon eposshunosligida shov-shuv bo'lgan, mutaxassislar tomonidan nodir asar sifatida e'tirof etilayotgan ikki risola – A.Lord va B.Putilovning baxshichilik san'atiga bag'ishlangan kitoblari ko'rsatdiki, bizning olimlarimizning kitoblarida keltirilgan ilmiy xulosalar eposshunoslikda juda muhim ahamiyatga ega ekan". Akademik To'ra Mirzayevning eposshunoslik fani taraqqiyotiga qo'shgan muhim metodologik yangiliklaridan biri - jonli eposni uning bevosita ijrochisi, ya'ni aytuvchi baxshi shaxsi bilan uzviy va yaxlit holda tadqiq etish yondashuvini fanga nazariy-amaliy jihatdan olib kirganligidir. Olim xalq dostonlarini shunchaki tarixiy yodgorlik matni sifatida emas, balki jonli epik an'ana va ijrochi (baxshi) shaxsi bilan uzviy aloqadorlikda o'rganish zarurligini isbotlagan. Bu metodologiya keyingi yillarda o'zbek xalq dostonlarini tadqiq etishning yetakchi yondoshuviga aylandi.

Aynan ushbu metodologik yondashuv epik matn va ijrochi shaxsiyatini yaxlitlikda o'rganish tamoyili milliy folklorshunoslik maktabining davomiyligi hamda yuksak ustoz-shogirdlik an'analarining amaliy mahsulidir. Bu ilmiy yondashuv va konsepsiyalarning shakllanish ildizlari, eng avvalo, o'zbek folklorshunosligi asoschisi Hodi Zarifning boy tajribasi hamda ilmiy-ma'rifiy qarashlari bilan chambarchas bog'liq. Akademik To'ra Mirzayev tomonidan aynan istiqlol yillarida yaratilgan "Hodi Zarif suhbatlari" (2013) asari uning ilmiy-amaliy tajribalari, qimmatli maslahatlari, sohadagi dolzarb muammolar va ularning yechimlariga oid teran yondashuv va xulosalarini o'zida jamlagan muhim manba hisoblanadi. Shu bois, folklorshunoslik fani taraqqiyotida ushbu kitobning tutgan o'rnini va unda ilgari surilgan ilmiy-nazariy, amaliy va metodologik yechimlarni tahlil etish alohida ahamiyat kasb etadi.

"Hodi Zarif suhbatlari"[2]da "O'zbek xalq qahramonlik eposi" (1947) monografiyasining yaratilish tarixi tahlil qilinar ekan, unda eposshunoslikdagi ikki yetakchi yo'nalish- H.Zarifovga xos milliy-tarixiy (lokal-etnografik) hamda V.M. Jirmunskiyga xos qiyosiy-tipologik yondashuvlarning uyg'unlashuvi hamda metodologik integratsiyasi namoyon bo'ladi. Olimlarning ilmiy munozaralari natijasida vujudga kelgan ushbu sintez eposning "bosqichli (stadial) taraqqiyoti" hamda "Boysun-Qo'ng'irot redaksiyasi" kabi fundamental nazariyalarning shakllanishiga xizmat qilgan. Asardagi fundamental ilmiy yechimlardan biri shundaki, Hodi Zarif "Alpomish" eposining genetik ildizlarini belgilashda V.M.Jirmunskiyning Yevroosiyo kengliklaridagi arxaik qatlam (VI–VIII asrlar, Oltoy davri) gipotezasiga milliy-hududiy, tarixiy-etnografik zaminni (Boysun-Qo'ng'irot redaksiyasi) qarshi qo'ymagan holda, eposning bosqichli (stadial) rivojlanish konsepsiyasini fanga kiritgan. H.Zarif "Alpomish" dostonining Oltoydan Volga bo'ylarigacha bo'lgan hududlarda tarqalgan versiya va variantlari faqat XX asrning 20–30-yillaridagina yozib olinganini ta'kidlaydi. Olimning ko'rsatishicha, doston bo'yicha yozma manbalarning cheklangani va yig'ilgan matnlarning to'liq nashr etilmagani uning paydo bo'lish davri, yaratilish joyi hamda tarixiy evolyutsiyasiga doir tugal ilmiy xulosaga kelishda obyektiv g'ov bo'lib xizmat qiladi: "Shu sababli men asosiy e'tiborni eposning o'zbek, qoraqalpoq va qozoq versiyalariga qaratib, uning yaratilish joyini O'rta Osiyo hududlarida belgilash va qariyb ming yil davomida bizgacha yetib kelgan variantlarda yaqin holatda og'zaki epik an'analarda ijro etilib kelayotganini ta'kidlash bilan chegaralanish tarafdori edim. V.Maksimovich esa doston syujetini turkiy xalqlar tarqalishi, ularning ko'chish va bir-birlariga aralashishlari bilan eposning syujet asoslari VI-VIII asrlarda Oltoyda yuzaga kelgan, uning tarixiy taraqqiyoti XVI asrgacha davom etgan degan fikrni ilgari surmoqchi bo'ldi... Ko'p munozaralardan keyin o'zaro bir fikrga keldik. Shu tariqa bizning kitobimizga epos syujetining "bosqichli (stadial) taraqqiyoti", "boysun-qo'ng'irot redaksiyasi", "Alpomish" dostoni va "Bamsi-Bayrak" bo'yi parallel syujetlar" kabi tushunchalar kirib keldi". H.Zarif va V.Jirmunskiy o'rtasidagi ushbu metodologik yondashuv o'zbek eposshunosligida "Alpomish" va boshqa xalq dostonlarini faqat tor milliy yoki abstrakt-komparativistik emas, balki kompleks tarixiy-tipologik doirasida tadqiq etish modelini yaratib berdi.

Folklor asarlarining eng muhim xususiyatlari sifatida og'zakilik, variantlilik, an'anaviylik va jamoaviylik ko'rsatiladi. Biroq og'zaki matnni qog'ozga ko'chirish (fiksatsiya) va uni nashrga tayyorlashda tekstologik tamoyillarning buzilishi folklorshunoslikdagi eng og'riqli muammolardan biridir. H.Zarif ushbu muammoga shafqatsiz baho beradi. H.Zarif tomonidan ishlab chiqilgan va T.Mirzayev tomonidan davom ettirilgan metodologiya-epik matnni baxshi va jonli ijro muhitidan ayirmasdan, sheva xususiyatlarini saqlab, har qanday sun'iy ideologik tahrir va falsifikatsiyadan xoli holda yozib olish va nashr etishning prinsipini qat'iy belgilab bergan.

H.Zarif to'plovchi olim va baxshi o'rtasidagi munosabatlarning qat'iy chegarasini o'rnatadi: "Folklorshunos u yoki bu dostonni yozib olayotganda baxshini "yetaklashi", undan "zamonabop" nimanidir talab qilishi, "zamonaviylik" haqida unga qandaydir maslahatlar berishi kechirib bo'lmas gunohi azimdir... Kuylanayotgan dostonga matniy jihatdan qandaydir o'zgartirishlar kiritishga faqat va faqat baxshi haqlidir".

T.Mirzayev tomonidan H.Zarifning ushbu qarashlari ilmiy muomalaga olib kirilishi natijasida o'zbek folklorshunosligida tekstologik daxlsizlik tamoyili shakllandi: matnni sun'iy tahrir qilish taqiqlandi, baxshining jonli ijrodagi har bir silliqlanmagan so'zi, dialektal o'ziga xosligi va ijro improvizatsiyasi daxlsiz qadriyat, deb e'tirof etildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Jo'rayev M., Eshonqulov J. Folklorshunoslikka kirish. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Barkamol fayz media, 2017.
2.Turdimov Sh. G'. "O'zbek folklorshunosligining yangilanish tamoyillari". O'quv-uslubiy majmua. Toshkent, 2016. – B. 82.
3.Эшонқул Ж. Миф ва бадиий тафаккур. – Тошкент, 2019. – Б. 17.
4.Mirzayev T. Hodi Zarif suhbatlari. – Toshkent: SHAMS-ASA, 2013. – B. 82-83.